

5. Marsh, D. CLIL/EMILE-The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential [M]. Brussels: The European Union, 65- 70. 2002
6. Coyle D. Content and Language Integrated Learning: Towards a Connected
7. James Cummins: BICS and CALP Teacher inspiration, Interpersonal communication skills, Interpersonal communication. 2008
8. Diane Larsen-Freeman. 2000. Techniques and Principles in Language Teaching. Second Edition. Oxford: Oxford University Press.

## **ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MASALASI VA ULARGA BO'LGAN TURLIChA YONDASHUVLAR**

*Khusnurakhon KOSIMOVA  
ADChTI tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Antrosentrik tilshunoslik rivojlanib borar ekan til birliklarining ochilmagan qirralariga nisbatan qiziqish keskin oshib bormoqda. Hozirgi zamon tilshunosligi sintaksisining eng markaziy masalalaridan biri gap, uning bo'laklari va ularning darajalanishi, xususan, kirish bo'laklar va boshqa darajalanishga kiritilmagan bo'laklarni sintaktik maqomini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqolada gap, uning bo'laklari, kirish bo'laklar va ularning darajalanishi tahlilga tortilgan.*

Gap nazariyasi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar orasida prof. L.S. Barxudarov tadqiqotlari e'tirofqa sazovordir. Gap nazariyasida L.S. Barxudarovning gapga bo'lgan qarashlari o'zining sof grammatik xususiyatlari sababli e'tiborga loyiq. Ayniqsa, uning gapga bergan ta'rifi o'zgachadir: "Gap (sentence) deb, ega va kesim strukturasidan iborat bo'lgan shunday til birligiga aytiladiki, unda mazkur struktura uni minimal nutq birligiga aylantira oladi" [1, 425]. Shunday qilib, gap deganda L.S. Barxudarova ta'biriga ko'ra ega-kesimli strukturani tushunish kerak. Masalan, "Bolalar keldi" – "The children have come".

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zan gaplar quyidagi tarkibga ega bo'lishi ham mumkin: "Albatta, bolalar keldi" – "Of course, the children have come". Bunday gaplar ega-kesimdan tashqari tarkibida kirish bo'lak borligi bilan ham yuqoridagi gaplardan farq qiladi. Demak, gapning strukturasini kirish bo'lak kengaytirishi mumkin ekan, shu bois uning grammatik ta'rifiga ham biroz o'zgartish kiritish mumkin. Unda gapni "Gap

(sentence) deb strukturasi ega, kesim va parenteza (kirish bo'lak)dan iborat bo'lgan shunday til birligiga aytiladiki, unda mazkur struktura uni minimal nutq birligiga aylantira oladi", deb qisman to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rinib turibdiki, gapning gap bo'lib shakllanishi uchun ega va kesim birligi muhimdir. Shu o'rinda, gap bo'laklarini maqomini belgilash va ularni darajalarga ajratish: bosh yoki ikkinchi bo'laklar masalasi va kirishlarni qanday darajalash masalalarida ko'p mulohazalar mavjuddir. Ma'lum adabiyotlarda gap bo'laklarini bosh (ega, kesim) va ikkinchi darajali (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo'laklarga ajratilgan, lekin kirish bo'laklarning nechanchi darajali bo'laklar qatoriga kirishi haqida ma'lumotlar berilmagan, aksincha u gap bo'lagi sifatidagi maqomi umuman mavjud bo'lmagan element deb tahlil qilib kelingan.

Sintaksisni o'rganish tarixi o'zining ko'p asrlik an'anasiga ega bo'lishiga qaramasdan, uning o'rganish predmeti masalasida hanuzgacha xilma-xil fikrlar mavjud. O'tgan asrlardan boshlab, sintaktik nazariyada tilshunos olimlar asosiy e'tiborni butunga (ya'ni gapga) emas, balki uning bo'laklariga qarata boshladi. Bundan tashqari, ushbu bo'laklarning gapdagi vazifasi va sintaktik maqomini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularni umumlisoniy tabiati faqatgina grammatik tahlil natijasidagina emas ularning lingvokulturologik, lingvopragmatik va lingvokognitiv jihatlarini o'rganish orqali to'laroq o'rganiladi. Shunday ekan, bevosita gap, uning bo'laklari va ularning sintaktik maqomini nafaqat yuzaki (surface), balki ichki (deep) tomonlarini o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda

Gapni gap bo'laklari rubrikasi ostida o'rganishda bir qator kamchiliklarning mavjudligi, ya'ni aksariyat gap bo'laklarining sintaktik maqomi to'la darajada gap bo'laklariga ajratish va ularning darajalanishiga kiritilmaganligi, gap bo'laklari rubrikasi ostida o'rganishdan xalos etishni taqozo etdi [2, 11]. Demak, tilshunoslikda dolzarblik kasb etayotgan gap bo'laklari masalasi kelib chiqayotgan muammolar mukammal yechim topilganicha yo'q. Tilshunoslikda gap bo'laklari ko'rib chiqilganda, ularni gap bo'lagi sifatida ajratish va darajalash kabi dolzarb masalalar qisman o'rganilgan, ya'ni ayrim kamchiliklar hali ham mavjud va o'rganilmoqda.

Umuman olganda, gap bo'laklari mavzusi yuzasidan olimlarmiz ko'plab ish olib borganliklarini ilmiy adabiyotlardan ko'rishimiz mumkin. Gap bo'laklari ta'rifi ham hozirgi zamon sintaksisining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Prof. B.O'rinboyevga ko'ra, gap bo'laklari gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismlardir [3,11]. Ammo ushbu ta'rif barcha gap bo'laklarini to'liq izohlay olmaydi, chunki gapning barcha bo'laklari boshqa gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Masalan gapning kirish bo'laklari gapning biror bo'lagi bilan emas, butun gap bilan o'zaro bog'langan. Gap bo'laklariga ajratish gapdagi har bir elementni o'zida mujassam etmasa, demak, gapni bo'laklarga gap bo'laklari rubrikasi ostida ajratish yetarli asosga ega emas.

Tilshunos A. Nurmonov o'z ishlarida gap tarkibida tobe bog'lanib ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi so'z yoki so'z birikmalari [4, 49] sifatida ta'riflagan, ammo gap bo'laklariga ta'rif berishda ularning biror so'roqqa javob berishini birlamchi qilib olish va shu asosida ularning sintaktik maqomini belgilash asosli emas, chunki turli so'z turkumlari biror gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Yana bir tilshunos olim G'. Abdurahmonov va uning izdoshlari ta'biriga ko'ra, gap bo'laklari gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyalardir [5, 39]. Gap bo'laklariga berilgan ushbu ta'rif mantiqan asosliroq, chunki gap tarkibidagi har bir element ma'lum vazifani bajarish uchun ushbu gap tarkibida namoyon bo'ladi. Shuningdek, gap bo'laklari sintaktik hodisa hisoblanib, ularni sintaktik kategoriyalar deb atash o'rinli.

B. A. Ilyish [6, 217], S. Haimovish va B. I. Rogoskaya [7, 116], shuningdek, o'zbek tilshunoslari N. Mahmudov va A. Nurmonov [8, 42-43], A. G'ulomov [9, 36-40] ishlarida ega va kesimni bosh bo'laklar, to'ldiruvchi, aniqlovchi, holni ikkinchi darajali, kirish bo'laklari esa darajalanishga umuman kiritilmagan. E'tiborlisi, yuqoridagi barcha manbalarda kirishlarni gapda alohida maqomi borligi va gap darajalanishiga qo'shmaslik o'rinsiz ekanligi ta'kidlansada, ularning nechinchi darajali bo'laklar ekanligini yoritib berilmagan.

Shunga qaramay, tilshunos olim G'.M. Xoshimov gapning markazi kesim emas, ega ekanligini o'zgacha ta'riflagan. Uning "Gap va uning bo'laklariga hamda

kengaytiruvchilariga qiyosiy-tipologik yondashuv” maqolasida gap bo’laklariga va ularning darajalanishlariga o’ziga xos tavsif va tasnif berib o’tgan. Unga ko’ra, ega bosh bo’lak (mutlaq hokim), kesim ikkinchi darajali bo’lak (egaga mutlaq tobe), to’ldiruvchi va hollar uchinchi darajali bo’laklar (kesimga tobe), aniqlovchi va izohlovchi to’rtinchi darajali (otlashgan bo’laklarning barchasiga tobe) va kirish bo’laklar beshinchi darajali (butun gapga tobe) bo’laklardir[10, 75].

Gap bo’laklarini yuqoridagidek darajalash ularning sintaktik tabiatini va ularning gap tizimidagi maqomini to’liq ochib bera oladi. Chunki, avvalo, ushbu darajalanish orqali gapdagi hokim bo’lak mutlaqlashtirilgan, ya’ni ega mutlaq hokim, kesim esa ikkinchi darajali. Chunki ega gapda mavjud bo’lmaganda ham unga gapda ehtiyoj bor (“keldi” gapidan “kim keldi?” degan savol tug’iladi). Bundan tashqari ega doim kesimdan ma’lum shaxs son qo’shimchasini talab qilib kesimni o’zgartira oladi, lekin kesim egani o’zgartirolmaydi, ya’ni kesim egaga moslashadi, ega kesimga emas. Shuningdek, sintaktik maqomi bir-biriga mos bo’lmagan ayrim gap bo’laklari asosli darajalash orqali farqlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка – Москва: Литературы на иностранных языках, 1960. – С. 425.
2. Gapni bo’laklarga ajratish tamoyillari, [https://muhaz.org/gapni-bolaklarga-ajratish\\_tamoyillari.html?page=11](https://muhaz.org/gapni-bolaklarga-ajratish_tamoyillari.html?page=11) –В.11
3. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Самарқанд, 2001. – Б. 16.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent:Ilm ziyo, 2004. – B.49
5. Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтўрдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 39.
6. Ильиш Б. А. Строй современного английского языка. – Ленинград: Просвещение, 1971. – С. 198, 211, 217.
7. Хаймович С. Роговская Б.И. Теорическая грамматика английского языка. – Москва: Высшая школа, 1987. – С. 251, 255.
8. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 42-43.
9. Фуломов А. Содда гап. –Тошкент, 1955. – Б. 36-40.

10. Хошимов Ғ. М. Гап ва унинг бўлаклари ҳамда кенгайтирувчиларига қиёсий-типологик ёндашув//Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2019. – Б. 75.

## **XORIJIY TIL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA: TUSHUNCHA VA MOHIYAT**

**Gulnoz TOLIBOVA**

*O'zbekiston jahon tillari universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotasiya.** Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyayning mohiyati va tarkibi muhokama qilinadi. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, strategik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kabi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Jahon ta'lim tizimida xorijiy tilda muloqotni o'rganishda kommunikativlik yo'nalish asosiy o'rin tutadi. Kommunikativ ong shaxsning kommunikativ faoliyati va kommunikativ xulq-atvorining butun yig'indisini ta'minlovchi kommunikativ bilimlar va kommunikativ mexanizmlar majmuidir. Ushbu tushunchalarning har bir inson faoliyati jarayonini va jamiyatda qabul qilingan muloqot me'yorlari va qoidalariga, shu bilan bir qatorda til o'qitish markazlarida xorijiy tillarni intensiv o'qitishda rioya qilishni nazarda tutadi.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, kompetentlik, kompetensiya, komponent, nutqiy ko'nikma, kommunikativ shaxs, kommunikativ qobiliyatlar, pedagogik takt.*

Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha hozirgi kunda xorijiy til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetansiyani shakllantirish muammosi, etarlicha o'rganilmaganligi sababli ko'plab tadqiqotchilar umumiy muloqot muammolarini, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalar, qobiliyat va xatti-harakatlarning individual muammolari o'rganmoqdalar.

Kommunikativ kompetensiya fenomeni uni "muloqot" tushunchasi orqali ko'rib chiqadigan ko'plab olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylangan: insonlar jamoasi vujudga keladigan jarayon sifatida (M.M. Baxtin, M.S. Kagan); dialog sifatida, inson mavjudligining asosiy, "suveren" tamoyili" (L.P. Bueva, M. Buber, T.G. Grushevitskaya, S. Frank, M. Xaydegger; madaniyat shakllanishining muhim omili sifatida (V. Bibler,